

**DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING
METODIK IMKONIYATLARI.**

Jumaboyeva Nazokat Abduhamid qizi

*turon xalqaro universiteti gumanitar fanlar va pedagogika
fakulteti lingvistika (ingliz tili) magistratura*

Annotatsiya: Quyida keltiradigan maqolada bugungi kunda bolalarni chet tillarga qiziqtirish usullari, ularni ona tilidan tashqari boshqa xorijiy tillar, masalan ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish va buni didaktik o'yinlar yordamida amalga oshirish va didaktik o'yinlarning maktab yoshidagi bolalar hayotidagi o'rnini haqida misollar keltirilgan.

Kalit sozlari: didaktika, didaktik o'yinlar, bolalar imkoniyatlari, ingliz va o'zbek xalq didaktikasi.

Аннотация: В следующей статье рассматриваются методы привлечения детей к иностранным языкам сегодня, развития у них интереса к иностранным языкам, отличным от родного, например, английскому, и использование дидактических игр, а также роль дидактических игр. Из жизни детей школьного возраста приведены примеры.

Ключевые слова: дидактика, дидактические игры, возможности детей, английская и узбекская народная дидактика.

Abstract: In the following article, the methods of making children interested in foreign languages today, developing their interest in foreign languages other than their mother tongue, for example, English, and using didactic games, and the role of didactic games in the life of school-age children examples are given.

Key words: didactics, didactic games, children's opportunities, English and Uzbek folk didactics.

Chet tili darsida o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning og'zaki muloqot va psixologik tayyorgarlik kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. O'yinlar

vositada o'rganish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bunday holda, o'yinlar albatta bir qator talablarga javob berishi kerak:

1. Ma'lum bir ta'lim muammolarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
2. Darsda berilgan o'quv ishining ritmini buzmaslik uchun "boshqariladigan" bo'lishi;
3. Darsdagi stressni yengillashtirish va o'quvchilar faolligini rag'batlantirish;

4. Avvalo o'yin lahzalarini anglashi kerak, o'quv effekti fonda qoladi;
5. Barcha o'quvchilarni o'yin faoliyatiga jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lish.

O'yinlardan foydalanar ekanmiz, ular bu jarayonda ma'lum bir funksiyalarga ham ega bo'lishi lozim. Quyida ularni ko'rib chiqamiz:

1. Ta'lim funksiyasi. O'yin chet tilini o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, umumiy ta'lim samaradorligi va qobiliyatini rivojlantiradi.
2. Tarbiyaviy funksiyasi. O'yin o'zaro yordam va o'zaro qo'llab-quvvatlash tuyg'usini rivojlantiradi.
3. Ko'ngil ochish funksiyasi. O'yin darsda qulay, g'ayrioddiy muhit yaratishga yordam beradi.
4. Kommunikativ funksiya. O'yin o'rganuvchilarni birlashtiradi va xorijiy tilda

O'ZARO MUNOSABATDA BO'LISHGA YORDAM BERADI.

Psixologlar inson hayotini uchta asosiy davrga ajratishadi: o'yin, ta'lim va mehnat. Ta'lim bosqichini boshdan kechirayotganida ham bola ruhiyatidan va xattiharakatlaridan o'yinlarga, kulguli mashg'ulotlarga qiziqishni osongina sezib olish mumkin. Pedagogika sohasi yetuk olimlari ham o'yinlar orqali o'rganishni bola ta'lim olishining tabiiy yo'li sifatida tan olishgan. Zerikarli Grammatik mashqlar, uzundan-uzun matnlar va tushunish qiyin bo'lgan qoidalar ba'zan bolani chet tilini o'rganish mobaynida tushkunlikka tushirib qo'yishi mumkin. Ayniqsa, bu holatni tajribamizda yuqori sinf o'quvchilarida ko'p kuzatganmiz. Bunday vaziyatda o'quvchilar zerikishni boshlaydi va bu keyinchalik o'qituvchi faoliyatiga ham salbiy tasir qilishi mumkin. Zero, har bir o'qituvchining muvaffaqiyati u ta'lim bergan o'quvchilarning bilim darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ustozlarimiz esa uyalmasdan, aktyorlik qobiliyatidan to'liq foydalanib, tez-tez darslarda turli xil o'yinlardan foydalanishlari kerak. Ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish ta'lim berish jarayonini muhim va ruhlantira oluvchi, ijobiy va natijaga boy tajribaga aylantiradi.

Mavzuga oid o'yinlarni izlash shart emas, o'quvchilar orasida mashhur bo'lgan o'yinlarni ta'lim jarayoniga moslashtirish mumkin. Dunyoqarashi keng o'qituvchi esa har bir mavzu uchun munosib o'yin topa oladi. Quyida dars jarayonini qiziqarli mashg'ulotga aylantira oladigan bir nechta o'yinlar haqida ma'lumot berib o'tmoqchiman:

The Flying House – “Uchar uy” o'yini. Bu o'yindan ingliz tili darsida geografiya fani bilan bog'liq mavzular uchun foydalaniladi. O'quvchidan agar uchadigan uyi bo'lsa qayerga borishi, nima uchun borishi va tashrif buyurmoqchi bo'lgan joyi (sayyora, qit'a, davlat, shahar) haqida qanday ma'lumotlarga egaligi haqidagi savollarga javob olishi mumkin. Masalan: If I had a flying house, I would go to France. Because Paris is the best place for travelling. There is Eifel Tower Here.

Concentration – “Diqqatli bo’lish” o’yini. Grammatik mashqlar va yangi so’zlarni o’rgatish uchun juda foydali o’yin. Ma’lum Grammatik mavzu tushuntirilgandan so’ng o’qituvchi birorta gapni qog’ozga yozgan holda o’quvchiga ko’rsatadi. O’quvchi esa unga ma’lum vaqt davomida qarab oladi. Keyin o’quvchiga boshqa qog’ozda gapdagi so’zlar tartibsiz holda beriladi. O’quvchi esa uni xatosiz yozish kerak. Masalan: There are ten desks in the classroom. Bu gap grammatik jihatdan to’g’ri. Keyin quyidagi ko’rinishda beriladi: in, there, desks, the, are, classroom, ten.

Adjectives – “Sifatlar” o’yini. Sifatlar, ularning darajalarini o’rganish uchun bu o’yindan foydalanish o’quvchilar bilim darajasini yuqori qiladi. Doskaga sodda gap yoziladi, o’quvchilar esa gapni sifatlar yordamida kengaytirishi kerak. Masalan: The Cat sat on the table. Javob esa quyidagicha bo’lishi mumkin: The fat cat sat on the dirty table.

Yoki sifatlardan foydalanib, nimanidir tasvirlash mumkin. Boshqa o’quvchilar esa o’z taxminlarini aytib tasvirlanayotgan shaxs yoki narsa nomini topishadi. Masalan: - I am green and square. I am in the classroom. – Board.

Syllables – “Bo’g’inlar” o’yini. Ba’zan o’quvchilar ingliz tilidagi so’zlarning

Yozilishi va talaffuzi o’rtasida farq mavjudligi sababli yangi so’zlarni yodlashda qiyinchilikka duch kelishadi. Bu o’yinni dars jarayoniga tadbiiq qilgan holda xatolarni keskin kamaytirish mumkin. Doskaga bir nechta turli xil bo’g’inli so’zlar yoziladi.

O’qituvchi stolga bir urib qo’yadi. Aslida bu harakat o’quvchilarning bir bo’g’inli so’zlarni topishi uchun buyruq shaklini anglatadi. Masalan: book, pen kabi. Stolga ikki marta urib qo’yilishi esa ikki bo’g’inli so’zlarni izlash uchun signal vazifasini o’taydi. Masalan: teacher, learning kabi.

O’qituvchi xatolarni joyida to’g’irlab boradi.

Touch and find – “Ushlab ko’r va top” o’yini. Yangi so’zlarni yodlashda, ayniqsa, boshlang’ich sinf o’quvchilariga katta yordam beradi. O’quvchining ko’ziga bog’ich bog’lanadi. U esa narsalarni birin-ketin ushlab nomini aytadi. Mevalar, sabzavotlar, tana a’zolari, o’quv qurollari nomlarini o’rganishda qo’l keladi.

Masalan: This is an apple. This is a peach. Endigina ingliz alifbosini o’rganayotgan o’quvchilar uchun magnitli harflarni ushlab ko’rib ularning nomini topish ham ancha qoiziqarli mashg’ulotga aylanadi. Masalan: This is A. This is C. This is O.

Umid qilamanki, ingliz tili mashg’ulotlarida o’yinlardan foydalanish haqidagi fikrlarim keying kasbiy faoliyatingizda yordamchi bo’la oladi. Dars jarayonida o’yinlardan foydalanishga imkoniyat topish samarali dars tashkillashtirish uchun juda foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zaitov, S. R. (2022). DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA TALABALARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH. ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI, 1, 120-124.
2. Rajabova, L. (2020). Matematika mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan Foydalanishning ahamiyati. Центр научных публикаций (buxdu).
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tashkilotlarida-ingliz-tilini-organishni-didaktik-loyihalashtirish>
4. <https://pshedu.jdpu.uz/index.php/presedu/article/download/5811/4145/14543>